

25 oktyabr kuni «Deformatsiyalanuvchan qattiq jismlar mexanikasi» bo'yicha Respublika ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi

✘ Respublikamiz Prezidentining Fanlar Akademiyasi xodimlari bilan 2018 - yilning o'zida o'tkazgan uchrashuvlari, respublikamiz faniga, respublikamiz olimlariga, jumladan, mexanika faniga berilayotgan yuksak e'tibordir. Ushbu uchrashuvlarda barcha olimlarimiz oldiga, shuningdek, mexanik olimlarimiz oldiga ham ulkan vazifalar qo'yildi. Bu vazifalarning eng muhimi - mexanik olimlar ham, respublikamiz fani, iqtisodiyotini rivojlanishiga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shishi lozimligidir.

2018 - yil 25 - oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 - yil 6 - martdagi 178-F-sonli Farmoyishiga asosan "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademiklarining tashabbusi va mas'ulligida 2018 - yilda respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy - texnikaviy anjumanlar rejasi"ga asosan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida "Deformatsiyalanuvchan qattiq jismlar mexanikasi" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani ✘ institutimizda tashkil etildi.

"Mexanika" eng qadimiy fanlardan bo'lib, Arximed, Pifagor, Galiley, Abu Rayhon Beruniy, Al - Xorazmiy, Al - Farg'oniy, Mirzo - Ulug'bek davrlaridan beri rivojlanib kelmoqda. Hech qanday soha yo'qki, mexanika faniga ehtiyoji bo'lmagan. Hozirgi fan va texnikaning shiddatli rivojlanayotgan davrida, o'ta yangi texnika va texnologiyalar yaratilayotgan zamonda, mexanika fanining mavqei va roli yanada yuksalmoqda.

Anjumanda 7 ta sho'bada mexikaning turli yo'nalishlari bo'yicha fundamental va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan 170 dan ortiq ma'ruzalar tinglanib, 4 nafar akademik, 50 ga yaqin fan doktorlari va 40 dan ortiq fan nomzodlari o'z doklamlari bilan qatnashishdi. Qolgan konferensiya qatnashchilarini yosh ilmiy xodimlar tashkil qildi. Shu jumladan, 1 ta ma'ruza AQSh davlatida faoliyat yuritayotgan vatandoshimiz prof. D. Azimov tomonidan qilingan bo'lib, yana 1 ta qo'shma ma'ruza Isroil va TIQXMMI xodimlari tomonidan, 4 ta ma'ruza Rossiya professorlari tomonidan, 5 ta ma'ruza Qozog'iston Respublikasi professorlari va Ukraina davlati professori tomonidan 1 ta ma'ruza qilindi.


✘ Konferensiya yakunlari bo'yicha sho'ba raislari va yetakchi olimlar ishtirokida davra suhbatini tashkil etilib, mexikaning sohalari bo'yicha bajarilgan ishlar sarhisob qilindi va kelgusidagi sohaning bajariladigan fundamental va amaliy yo'nalishdagi ishlarning ustuvor vazifalari belgilab olindi.

Davra suhbatida qatnashgan olimlar bugungi konferensiyani asosiy natijalari - barcha mexanika sohasi bo'yicha faoliyat yuritayotgan olimlarni birlashtirganligini, olimlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarni barchaga tanishtirilishiga, o'sib kelayotgan yosh avlod bilan ustoz-shogird asosida o'zaro birga ishlash uchu asos yaratdi deb ta'kidlandi. Davra suhbatida qatnashgan barcha domlalar olimlar tomonidan olib borilayotgan ishlarning ko'p qismi amaliyotda uzoqligi haqida gapirilib, kelgusida bajariladigan ishlarimizni Respublikamizda dolzarb bo'lib turgan masalalarni yechishga qaratilib, iqtisodiyotimizni rivojlanishiga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak deb ta'kidlashdi.


Shuningdek, Samarqand davlat universiteti professori B.Xo'jayorov har 2 yilda shunday konferensiyani Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti bazasida o'tkazib, qilgan ishlarimizni sarhisob qilib turish kerakligi, mexanik olimlar o'rtasida o'zaro aloqani mustahkamlash uchun matematiklarga o'xshab "Mexaniklar" jamiyati tuzish bilan har 2 yilda "Mexanika" bo'yicha s'ezdlar o'tkazilishini maqsadga muvofiqligi to'g'risida fikr bildirdi. Asosiy muammolardan yana biri shuki, talabalarni "Mexanika" fanlaridan bilimlari ancha susayganligi, shuning uchun ular mutaxassislik fanlarini yaxshi o'zlashtirisha olmayotganliklarini, ish joylariga borganda ularni mustaqil fikr yuritishlari ancha past bo'lganligi uchun ish joylarida yaxshi ishni uddalab keta olishmayotganligini, buning sababi "Mexanika"ga ajratilgan soatlarni kamayib ketganli va ba'zi yosh o'qituvchilarimizni saviyasi past bo'layotganligini ✘ hamda malaka oshirishni fanlar bo'yicha tashkil qilib, yosh o'qituvchilarimizni ko'p narsaga o'rgatish

kerakligi aytildi. Shu bilan birga talabalarimizga quruq formulalarni yod olishni o'rgatish bilan cheklanmasdan ularga mexanika masalalarini yechishda mustaqil fikrlashni o'rgatishimiz kerakligi, "Mexaniklar" jamiyatini tuzishda asosiy maqsadlardan biri, fan bo'yicha dasturlarni zamon talabiga moslab, talabalarni fan bo'yicha salohiyatini ko'tarish zarurligi fikrini bildirdi. Albatta bu konferensiyada e'tirof qilingan eng yaxshi natijalarni nufuzli jurnallarda chop qilishga qarorlar qabul qilib, mualliflarimizni rag'batlantirish mexanizmini yo'lga qo'yish lozim.

Yana bir asosiy masala yoshlardan sifatli fan nomzodlari va fan doktorlarini tayyorlashga katta e'tibor berishimiz kerak, chunki mexanika fani bo'yicha fan doktorlarini yoshi 2 yil oldin 69 yosh edi. Hozir sal pasaygan. Mana qabul shaffof bo'layapti, 2 yildan beri shularni ichida iqtidorli yoshlarni topib ular bilan ishlashimiz kerak. Ko'pchilik o'ylaydiki "Mavzu berib ko'ysangiz o'larini o'zi ilmiy ishlarini bajaradi" deb, yo'q unday emas, hozirgi kunda kadrlar tayyorlash uchun yoshlar bilan birga ishlash kerak. Shunda biz o'zimizni o'rnimizga salohiyatli yoshlarni qoldira olamiz. Bu masalalar bilan ham "Mexanika" jamiyati vazirliklar bilan birgalikda shug'ullanishi kerak bo'ladi - deydi Toshkent davlat texnika universiteti professori K.Karimov.

Ayniqsa, dissertatsiya ishlarini bajarganda hozirgi davlatimizni talabida kelib chiqib iqtisodni rivojlantirishga qaratilgan mavzu bo'yicha ish olib borish kerak. Chunki dissertatsiya himoya qilingandan keyin chang bosib kutubxona va shkaflarda qolib ketmasligi kerak degan fikrlar O'zR FA Mexanika va  inshootlar seysmik mustahkamligi instituti laboratoriya mudiri, f-m.f.d., professor K.Sultanov.

Davra suhbatida ishtirok etgan Ural davlat temir yo'llari universiteti (Ekaterinburg shahri, Rossiya) professori, t.f.d. X.Turanov tomonidan O'zbekiston uchun xizmat qilgan ulug' ustozlarni xotirasini abadiylashtirish to'g'risida ham o'ylash kerakligi, O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, sobiq Ittifoq mehnat qaxramoni, Moskva davlat universiteti kafedra mudiri X.A.Raxmatulin respublikamiz uchun 10 lab fan doktorlarini va 50 ga yaqin fan nomzodlarini tayyorlaganligi, lekin bu kishini nomi respublikamizning hech qayerida yo'qligi aytib, u kishining xotirasiga bag'ishlab konferensiyalar o'tkazish, tegishli vazirlik va idoralar rahbariyatlaridan nomlarini abadiylashtirishni so'rasak katta ish bo'lardi deydi. Huddi shu kishidek akademik T.J.Juraevni, akademik X.X.Usmanxodjaevni, akademik D.F.Fayzullaev va boshqa akademik - olimlarimizni ham eslab turish respublikamiz mexaniklarining oldida turgan ham qarz va farz masalalaridan biridir.

Hozirgi vaqtda respublikamizda juda yechilish kerak bo'lgan masalalar turganiga qaramasdan bizlar ko'proq hamkorlarni chetdan qidiramiz. Men ham bugungi konferensiya bizning institumiz  shug'illanadigan muammolarning aksariyatini mexaniklar bilan birga yechish imkoniyatimiz borligini ko'rdim. Demak, o'zaro hamkorlikni kuchaytirsak yanada ijobiy natijalarga erishishimiz mumkinligini yaqqol ko'rdim. Rogun GESi ekspertizasi bo'yicha ishlaganimizda bizga mexanik muammolar bo'yicha maslahat beradigan mutaxassisni topishga juda qiynaldik, agarda birgalikda ish olib borganimizda bu muammoni yechish uchun mutaxassisni respublikamizdan topishimiz mumkin edi. Shuning uchun, o'zaro hamkorlikda ishlashni kuchaytiraylik degan fikrlar Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instiuti professori, t.f.d. A.Saloxiddinov.

Bo'lib o'tgan konferensiya va uning yakuni bo'yicha tashkil etilgan davra suhbatida juda yuqori darajada bo'lib o'tdi. Buni tashkil qilishda ishtirok etganlarga va tashkiliy ishlarni o'z zimmasiga olgan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti rahbariyatiga, ayniqsa institut rektori prof. O'.P.Umurzakovga barcha davra suhbatida qatnashchilari o'z minnatdorchiliklarini bildirishib, institutning bundan ham ravnaq topib, Respublikamizdagina emas, balki Markaziy Osiyoda ham o'z o'rniga ega bo'lishiga tilaklar bildirishdi.

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov